

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TOBIROV ODILJON QOBILJON O'G'LI

**GEOGRAFIK TURIZM VA UNING TABIIY GEOGRAFIK JIHATLARI
(FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)**

11.00.01 - Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (Ph.D.)
on geographical sciences**

Tobirov Odiljon Qobiljon o‘g‘li

Geografik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari (Farg‘ona vodiysi misolida).....	3
--	---

Тобиров Одилжон Кобилжон угли

Географический туризм и его физико-географические аспекты (на примере Ферганской долины)	19
---	----

Tobirov Odiljon Kobiljon ugli

Geographical tourism and its physical-geographical aspects (on the example of the Ferghana Valley)	37
---	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ List of published works	41
--	----

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TOBIROV ODILJON QOBILJON O'G'LI

**GEOGRAFIK TURIZM VA UNING TABIIY GEOGRAFIK JIHATLARI
(FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA)**

11.00.01 - Tabiiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr217 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nigmatov Asqar Nigmatullayevich
geografiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Boymirzayev Karimjon Mirzaaxmedovich
geografiya fanlari doktori, dotsent

Komilova Nargiza O‘rinovna
geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 26-aprel soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Muqimiy ko’chasi, 45-uy. Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti binosi, 222-xona, tel: (+99895)410-20-10), faks: (+99866)239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Universitet xiyoboni, 15 uy. Tel: (+99866) 233-60-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

S.B. Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
g.f.d., professor

B.A. Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
geografiya fanlari bo‘yicha PhD

A. Abulqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, g.f.d., professor

KIRISH (falsaфа doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning hisobotlarida turizmni barqaror rivojlantirish dasturlarida turizmni rivojlantirishning innovatsion xususiyatlari va jihatlarini ochib berish vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan dunyo bo'yicha geografik turizmni rivojlantirish, turistik ob'ektlarga sayyoohlar oqimini yanada oshirish, turistik salohiyatni yuksaltirish, turizm infratuzilmasini turizm potentsialini inobatga olib takomillashtirish asnosida turistik resurslarni to'g'ri baholash va yangi yo'naliшlarini aniqlashni taqozo etadi.

Dunyo bo'yicha turizm sohasini yuksaltirish, uning iqtisodiyotda tutgan o'rmini geografik jihatlarini asoslash, geografik ahamiyatini va ulushini yanada oshirish maqsadida turizm bozorini samarali rivojlantirishga asos yaratadigan zamonaviy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari geografik turizm salohiyati yuqori bo'lган hududlarni hamda sayyoohlik maskanlarini, turizmni rivojlantirishning o'ziga xos mintaqaviy farqlarni aniqlash, ularning ichki imkoniyatlarini baholash, sayyoohlarga ko'rsatiladigan xizmat turlarini ko'paytirish hamda ularni hududiy tashkil etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda turizm va rekreatsiya sohasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususan uning tabiiy geografik xususiyatlarini inobatga olishda zamonaviy metodlardan foydalanish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ning 35-maqsadi "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyoohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish..." yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagи o'rni va ulushini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagи PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va shu farmon bilan tasdiqlangan "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiysi", 2018 yil 7 fevraldagи PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagи 100-son "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va 2022-yil 8-iyun 318-son "2022-2024-yillarda Namangan viloyati Pop, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlarining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi hamda

mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliшlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar” va V. “Turistik hududiy tizimlarni shakllanishi, rekreatsiya va turistik imkoniyatlarning rivojlanishini baholash va tahlil qilish, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, Hududiy-ishlab chiqarish komplekslari (tizimlari)” ning ustuvor yo'naliшlariga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darjasи. Turizmnинг geografik jihatlarini o'rganish, sayyohlik resurslarini an'anaviy va zamonaviy GAT texnologiyalarini qo'llash asosida tahlil qilish va baholash, turistik-rekreatsion zona va klasterlarni tashkil etish bo'yicha nazariy va uslubiy asoslarini xorijiy olimlardan B.Abegg (1997), A.D.Kliskey (2000), S.R.Yerdavletov (2000), J.Priskin (2001), A.A.Romanov, R.G.Saakyans (2002), A.Spenceley (2003), N.P.Rudnikova (2005), N.N.Staroverkina (2007), L.Qiao (2009), G.Cheia (2010), G.Chang (2011), G.E.Nastinova (2011), A.M. Tomczyk (2011), W.Wei (2012), S.Williams (2014), H.Zhenfan (2015), A.B.Uzdenova (2015), T.Rahayuningsih (2016), G.Andelković (2016), K.Nino (2017), M.Kolendo (2017), A.Alawer (2018), O.V.Gorbunova (2018), A.M.Gill (2018), Sh.Van (2018), M.Ebrahimi (2019), E.Eftekhari (2019), H.Zabihi (2020), N.Grdzelishvili (2020), D.Omarzadeh (2021), S.Wang (2022), A.Correia (2022), A. Zyryanov(2009, 2022)larning tadqiqot natijalarini ko'rsatish mumkin.

Respublikamizning geograf olimlari: A.S.Soliyev (2005), A.N.Nigmatov (2007, 2012, 2018, 2021), M.R.Usmonov (2003, 2005), N.T.Shomuratova (2012), Sh.T.Yakubjanova (2018), B.X.Kamolov (2018), M.M.Mahmudov (2020), Sh.G'.Shomurodova (2020), Sh.A.Xolmurodov (2021), O'.B.Badalov (2021), X.X.Jumayev (2022), E.G'.Maxkamov (2022)lar mamlakatimiz, jumladan Farg'ona vodiysida sayyohlikni rivojlantirishning bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borganlar. Lekin, ular o'z tadqiqotlarida izlanishlarni asosan an'anaviy usullarda, muayyan turlar bo'yicha va yangi geografik turizm nuqtai nazardan masalaga o'z e'tiborlarini qaratmaganlar.

Mazkur dissertatsiya turizmnинг yangi yo'naliши bo'lmish geografik turizmni muayyan mintaqasi, zona va klasterlar asosida tashkil etishni zamonaviy GAT texnologiyalaridan keng foydalangan tarzda baholashning metodologik asoslarini ishlab chiqilganligi bilan yuqorida keltirilgan olimlarning ishlaridan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliv ta'lismuassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oliy ta'lismi va ishlab chiqarish integratsiyasining rivojlanishida klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida “O'quv-ilmiy kompleks”ni yaratish” (2021-y.) dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Farg'ona vodiysida geografik turizmni tabiiy geografik jihatlari zamonaviy GAT texnologiyalari asosida baholashning ilmiy-amaliy asoslarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

geografik turizmning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilish;

Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismi tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini GAT yordamida geografik turizm uchun baholash metodologiyasini ishlab chiqish;

Farg‘ona vodiysi turistik mintaqada turistik-rekreatsion zona va klasterlar GAT texnologiyalari yordamida ajratish;

mintaqaning turistik-rekreatsion zona va klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tavsiya qilish.

Tadqiqotning obyekti. Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston Respublikasidagi qismi.

Tadqiqotning predmeti. Farg‘ona vodiysi mintaqasining tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini geografik turistik nuqtayi nazardan GAT texnologiyalari yordamida baholash orqali turistik-rekreatsion zona va klasterlarga ajratish masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida GATning ArcGIS va QGIS dasturlari asosida raqamlashtirish, ArcGIS va QGIS yordamida boshqaruvli va boshqaruvsiz sinflashtirish, ArcGIS dasturining AHP va Weighted Overlay metodlari, ko‘p ko‘rsatkichli baholash, fazoviy tahlil, kartografik, dala kuzatuv, matematik tahlil, statistik va tizimli yondashuv hamda boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

geotizimlar geografik turistik rayonlashtirish maqsadida global, subglobal, regionlararo, regional, subregional va lokal tasnifiy guruhlarga ajratilgan va ularning geografik jihatlari aniqlangan;

Farg‘ona vodiysi tabiat komponentlarini GAT yordamida geografik turizm uchun alohida va kompleks baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan hamda ushbu metodologiya dala-ekspeditsiya tadqiqotlari bilan aniqlashtirilgan;

tabiiy geografik ko‘rsatkichlar asosida mintaqa bo‘yicha 7 ta turistik-rekreatsion zona va 18 ta klasterlar ajratilgan hamda ArcGIS va QGIS dasturlari yordamida 1:1 200 000 masshtabli avtomatik kartalari yaratilgan;

mintaqaning turistik-rekreatsion zona va klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turistik mintaqa, zona va klasterlarni tadqiqot obyekti sifatida oluvchi yangi turistik yo‘nalish – “Geografik turizm” ilmiy asoslangan;

geotizimlar geografik turistik nuqtayi nazardan globaldan lokal miqyosga tomon tabiiy geografik jihatdan tasniflangan;

Farg‘ona vodiysi tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini zamonaviy GAT texnologiyalari yordamida baholash metodologiyasi ishlab chiqilgan;

Farg‘ona vodiysi mintaqasi tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini GAT texnologiyalari yordamida turistik rayonlashtirilgan va ularni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishining dala-ekspeditsiya, kameral va statsionar, zamonaviy GAT texnologiyalari, kartografik, mintaqaviy birliklarni tipologik birliklar bilan to‘ldirish, adabiyot va fond

materiallari bilan ishslash, statistik, qiyosiy geografik kabi metodlardan keng foydalanilganligi; ular ilmiy va amaliy tahlil qilinganligi; ish rejada qo‘yilgan masalalar bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi, bob va paragraflar mantiqan bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi; dissertatsiyaning maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi metodlarning qo‘llanilganligi, olingan xulosa va tavsiyalarning amaliyatga tatbiq etilgani hamda vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyadagi ilmiy-nazariy xulosalar, umumgeografik obyekt bo‘lgan geotizimlar geografik turistik nuqtayi nazardan tasniflash va uning tabiiy geografik jihatlari ochib berish asosida turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turistik mintaqa, zona va klasterlarni tadqiq qiluvchi yangi amaliy yo‘nalish, geotizimlarni geografik turistik nuqtayi nazardan tabiiy geografik tasniflash, mintaqaning tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini GAT texnologiyalari yordamida turistik rayonlashtirish va ularni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Geografik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

geotizimlar geografik turistik rayonlashtirish yuzasidan olingan natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 20-sentyabrdagi 04-18/5037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, turistik-rekreatsion mintaqa, zona va klasterlar tizimi orqali hududlarni turistik rayonlashtirish imkonini bergen;

geografik axborot tizimlar yordamida geografik turizm uchun alohida va kompleks baholash metodologiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 20-sentyabrdagi 04-18/5037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy geografik ko‘rsatkichlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida turistik imkoniyatlarini operativ baholash imkonini bergen;

mintaqa bo‘yicha ajratilgan turistik-rekreatsion zona va klasterlarga oid natijalar O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 20-sentyabrdagi 04-18/5037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, muayyan hududlarda turistik-rekreatsion zona va klasterlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida ajratish imkonini bergen;

mintaqaning turistik-rekreatsion zona va klasterlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining 2022-yil 20-sentyabrdagi 04-18/5037-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, hududlarning turistik imkoniyati va tabiiy geografik hususiyatlarini inobatga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 ta paragraf, 12 ta xulosa, 198 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 111 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati oshib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyatga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning 1-bobi «**Geografik turizmning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan bo'lib, uning «*Turizm, geografiya va geografik turizm tushunchalarining tahlili*» nomli 1-paragrafida turizm jahonda eng rivojlanib borayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri ekanligi, lekin uning ko'lamni, oqimi va vaqt davomida o'zgarib borishi hududlarning geografik, jumladan tabiiy geografik jihatlariga bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Uning aynan mazkur jihatlari yangi sayyoqlik turni – “Geografik turizm”ni yaratishga undadi.

O'zining murakkabligi jihatidan turizm fenomeni turli fan sohalarida qo'llanilishi tufayli uning tushunchasini ko'p tarmoqli bahsli sohaga aylantirib qo'ysi. Aslida *turizm* – sayohatchilik siyosatini belgilash, tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish bilan shug'ullanuvchi industriya tarmog'i ekanligi aniqlandi. *Geografiya* – muayyan geotizimlarda tabiat, jamiyat va uning hayotiy faoliyati o'rtaqidagi munosabatlarni hududiylik, komplekslik, davriylik va tizimlilik xususiyatlarini tadqiq qiluvchi fan sohasi, unga oid bilim, ko'nikma va malakalarni beruvchi ta'lim yo'nalishi, ushbu munosabatlarni barqarorlashtiruvchi amaliyot tarmog'idir. Yuqoridaq ta'riflardan kelib chiqqan tarzda *geografik turizmni* – muayyan geomajmualar yoki geotizimlarda sayohatchilikni hududiylik, komplekslik, davriylik va tizimlilik nuqtayi nazardan siyosatini belgilash, tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish bilan shug'ullanuvchi turizm industriyasining bir turi, deb qarash mumkin.

Geografik turizm “Geoturizm” dan farqli ravishda u Yer qa'rining quyi va ustki qatlamlarining geologik xususiyatlarini emas, balki Yer yuzasi geotizimlari doirasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turistik-rekreatsion

klaster, zona, mintaqalarning hududiylik, komplekslik, davriylik va tizimlilik jihatlarini tadqiq qiladi¹.

Turistik-rekreatsion mintaqa – muayyan ma'muriy chegaraga ega bo'lgan, turistik xizmatlarni amalga oshiradigan o'ziga xos tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab oluvchi turistik zona va klasterlardan iborat bo'lgan maxsus hudud. *Turistik-rekreatsion zon a* – muayyan chegaralarga ega bo'lgan, bir yoki bir necha turistik klasterlardan tashkil topgan, sayyohlikni yil bo'yli tashkil etish imkoniyati bor bo'lgan maxsus hudud. *Turistik-rekreatsion klaster* – muayyan chegaralarga, mavsumiy xarakterga va tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga ega bo'lgan maxsus hudud.

«*Geografik turizmning metodologik asosi*» deb nomlangan 2-paragraf turistik yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosi bo'lgan metodologik yondashuvga bag'ishlangan. Unda geografik turizmning metodologiyasi zamonaviy GAT texnologiyalarini qo'llash yo'llarini ishlab chiqish va olingan ma'lumotlarni an'anaviy dala tadqiqot hamda kameral metodlar orqali tekshirib borish kerakligi ko'rsatilgan. Bunda kameral loyihalash, dala–ekspeditsiya, tajriba-sinov yoki tayanch shoxobchalar, kameral xulosalashga tizimlashgan ravishda qat'iy amal qilish tadqiqot natijalari ishonchlilagini keskin oshiradi.

Hududlarni tabiiy geografik ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda turistik imkoniyatlarini baholash mezoni qilib ularning turistik komfortlik darajasini olish maqsadga muvofiq deb topildi (1-jadval)

1-jadval

Hududni geografik turistik imkoniyatlarini baholash mezoni

Ball		Komfortlilik tasnifi
5	81-100	<i>Komfort</i> – hududda kishining sayohati uchun to'liq qoniqtiradigan sharoitning mavjudligi
4	61-80	<i>Subkomfort</i> – hududda kishini sayohati uchun qoniqtiradigan sharoitning mavjudligi
3	41-60	<i>Diskomfort</i> - hududda kishini sayohati uchun qisman qoniqtiradigan sharoitning mavjudligi
2	21-40	<i>Subdiskomfort</i> - hududda kishini sayohati uchun qoniqtirmaydigan sharoitning mavjudligi
1	0-20	<i>Ekstradiskomfort</i> – hududda kishini sayohati uchun sharoitning yo'qligi

3-paragraf «*Geotizimlarni geografik turistik rayonlashtirish maqsadida tasniflanishi va unga tabiiy geografik yondashuv*»da geotizimlarni tasniflash va ularni geografik turizm nuqtayi nazardan rayonlashtirish asosida Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismi tadqiqot obyekti sifatida ajratib olindi (2-jadval).

Dissertatsiyaning «**Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismi tabiiy geografik ko'rsatkichlarini GAT yordamida geografik turizm uchun baholash metodologiyasi**» deb nomlangan 2-bob 1-paragrafi «***Farg'ona vodiysi tabiiy geografik ko'rsatkichlarini GAT yordamida geografik turizm uchun baholash metodologiyasi***»da subregional va lokal geotizimlar tabiiy geografik jihatdan baholangan. Masalan, mintaqalarning mutlaq balandligi 3 ta va qiyaligi 4 ta


¹ Геотуризм – проблемы и решения (на примере Узбекистана) / География жамиятининг X съездидан материаллари.– Т.: ЎзМУ, 2019. 100-109-б.

2-jadval

Geotizimlarni ko‘lamiga ko‘ra turistik maqsadda rayonlashtirish prinsiplari va taksonomik birliklari (Osiyo qit’asi misolida)

Geotizimlarni ko‘lamiga ko‘ra tasnifi	Turistik rayonlashtirish prinsiplari	Turistik taksonomik geotizimlar
<i>Global</i>	<i>Tabiiy geografik ustuvorlik</i>	Geografik qobiq jihatlari
<i>Subglobal</i>	<i>Tabiiy geografik ustuvorlik</i>	Troposfera, gidrosfera, yuqori litosfera jihatlari
<i>Regionlar aro</i>	Siyosiy-iqtisodiy geografik ustuvorlik	Osiyo qit’asi
		Janubiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Rossiya va Markaziy Osiyo...
<i>Regional</i>	Siyosiy geografik ustuvorlik	Markaziy Osiyo ... O‘zbekiston ...
<i>Subregional</i>	Ma’muriy-siyosiy geografik ustuvorlik	<i>Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston qismi ...</i> <i>Farg‘ona viloyati ...</i>
		Maxsus turistik yoki turistik-rekreatsion zona Maxsus turistik yoki turistik-rekreatsion klaster
<i>Lokal</i>	Ijtimoiy-iqtisodiy geografik ustuvorlik	

metodologik bosqichda turistik baholandi (1-rasm). Qolgan tabiiy geografik ko‘rsatkichlar: iqlim 6 ta (2-rasm), gidrografik tarmoqlar zichligi 5 ta, suv havzalarining maydoni 4 ta, biologik 3 ta metodologik bosqichlardan iborat bo‘lgan ketma-ketlikda turistik komfortliligi ham besh darajada GAT texnologiyalarining ArcGIS va QGIS dasturlari yordamida baholangan.



1-rasm. Farg‘ona vodiysi relyefining mutlaq balandligi va qiyaligi bo‘yicha turistik baholanishi

Dissertatsiya 2-paragrafi “Baholangan tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini GAT yordamida turistik imkoniyatlarini kompleks baholash metodologiyasi”da Farg‘ona vodiysida tanlab olingan 14 ta tabiiy geografik ko‘rsatkichlari 4 ta (geomorfologik, iqlimi, hidrografik, biologik) guruh bo‘yicha GAT texnologiyalarining ArcGIS dasturi yordamida kompleks baholashning

1	• WorldClim - iqlim ma'lumotlar bazasi
2	• ArcGIS - raster ma'lumotlarni qayta ishlovchi dastur
3	• Extract by Mask - tadqiqot obyekti ajratish
4	• Reclassify - tadqiqot obyektidagi iqlim ko'rsatkichlarini qayta tasniflash
5	• Raster calculator - tasniflangan iqlim ko'rsatkichlarini umumlashtirish
6	• TCI - tadqiqot obyektini sifat baholash

2-rasm. GAT asosida Farg'ona vodiysi iqlim ko'rsatkichlarini sifat baholashning metodologik ketma-ketligi

metodologik bosqichlari ishlab chiqildi (3-jadval). Bunda geomorfologik va biologik guruhlar turizm imkoniyatlarini belgilovchi ko'rsatkichlar ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar asosida tabiiy geografik ko'rsatkichlarining besh darajadagi komfortlilik holati qayta tasniflandi.

Dissertatsiyaning 3-paragrafi «*Baholangan tabiiy geografik ko'rsatkichlarini dala-ekspeditsiya tadqiqotlar bilan taqqoslash*»da turistik mintaqaning tabiiy geografik asosiy geotizimlarini qamrab olgan dala-ekspeditsiyasi marshrutlari (1100 km) va tayanch kuzatuv shoxobchalari (5 ta) hamda 800 dan ortiq turistik-rekreatsion obyektlar hududining geomorfologik tuzilishi vertikal zonallik qonuniyatlariga monand ravishda (2500 m) turizm turlarining komfortlilikdarajalari ham ortib borishi aniqlandi (3-rasm). Aksincha, relyefning mutlaq balandligi ortib borgani sari xizmat ko'rsatish turlarining sifati va xavfsizlik darajasi (Xonobod turistik-rekreatsion zonasidan farqli ravishda) pasayib boradi.

Dissertatsiyaning «*Farg'ona vodiysi turistik mintaqasida turistik-rekreatsion zona va klasterlarni tashkil etish*» deb nomlangan 3-bobning 1-paragrafi «*Mintaqaning tabiiy geografik ko'rsatkichlarini GAT texnologiyalari yordamida turistik-rekreatsion zona va klasterlarga ajratish*»da asosiy urg'u joyning tabiiy ko'rsatkichlariga qaratilgan. Jumladan, zona va klasterlarni tashkil etishdagi xalqaro tajriba 7–12 tagacha bo'lgan tabiiy geografik ko'rsatkichlarni GAT texnologiyalari asosida tashkil etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Farg'ona vodiysi O'zbekiston qismida GAT texnologiyalari asosida 14 ta tabiiy geografik ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda, 7 ta turistik-rekreatsion zona va 18 ta turistik-rekreatsion klasterlarni tashkil etishining ilmiy jihatdan asoslاب berilgan. Jumladan zamонави GAT texnologiyalari va dala-ekspeditsiya tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda Farg'ona vodiysi O'zbekiston qismining 1:1100000 masshtabli geografik turizm kartasi yaratildi (4-rasm).

Tasniflangan ma'lumot ko'rsatkichlari ArcGIS dasturining vaznli qoplama metodi orqali ["Gidrografik_tarmoqlar_zichligi"]*0.15+"Yillik_iqlim"]*0.13+"Tuproq_unumdorligi"]*0.09+"Mutlaq_balandlik"]*0.17+"Suv_havza"]*0.11+

3-jadval


Turistik imkoniyatlarni belgilab beruvchi asosiy tabiiy geografik ko'rsatkichlar

Farg'ona vodiysi hududini turistik komfortliliginin baholovchi ko'rsatkichlar (indikatorlar)	O'zbek birligi	Komfortlilik darajasini baholash mezoni				
		Ekstra-diskomfort	Sub-diskomfort	Dis-komfort	Sub-komfort	Komfort
		0-20	21-40	41-60	61-80	81-100
Geomorfologik ko'rsatkichlar						
Mutlaq balandlik	metr	3000-3500	2500-3000	0-500	2000-2500	500-2000
Qiyalik (yoz mavsumi)	gradus	>25	24-19	18-13	12-7	6-0
Qiyalik (qish mavsumi)	gradus	0-6	7-12	13-18	19-24	25<
Iqlim ko'rsatkichlari						
Oylig eng yuqori havo harorati	gradus	36-34	33-32	31-30	29-28	27-20
Oylig eng past havo harorati	gradus	-10 - -1	0-9	10-16	17-18	19-20
Oylig yog'in miqdori	mm	135-120	119,9-90	89,9-60	59,9-30	29,9-0
Shamolning tezligi	m/s	>38,52	38,52-24,30	24,29-12,24	12,23-5,76	5,75-0
Gidrografik ko'rsatkichlar						
Gidrografik tarmoqlar zichligi	km/kv ²	0-0,30	0,31-0,61	0,62-0,91	0,92-1,22	1,23-1,52
Suv havzalari maydoni	km ²	0-15	16-29	30-44	45-58	59-73
Biologik ko'rsatkichlar						
Fito va zoobiologik xilma-xillik	ta	0-0,1	0,1-0,3	0,3-0,5	0,5-0,6	0,6-0,8
Tuproq unumdorligi	foiz	0-1,2	1,3-2,4	2,5-3,6	3,7-4,8	4,9-6
Butazor va o'rmonlar maydoni	km ²	0-295	296-590	591-885	886-1180	1181-1475
Qishloq xo'jaligi maydonlari	km ²	4319-3456	3455-2592	2591-1729	1728-865	864-0
Tosh va qumli maydonlar	km ²	65-53	52-40	39-27	26-14	13-0

The map illustrates the Fergana Valley (Farg'ona vodiysi) in Uzbekistan, showing its various regions and settlements. Key locations labeled include Chodak, Chust, Kosonsoy, Nanay, Yangiqor'g'on, Chortoq, Madyorovul, Shaxrixon, Xo'jaobod, Quva, Arsif, Rishton, Chimyon, Vodil, and Buvayda. Four marshrut (tourist route) numbers are indicated by dashed lines: Route 1 (Chodak-Chust-Kosonsoy-Nanay), Route 2 (Nanay-Yangiqor'g'on-Chortoq-Madyorovul-Shaxrixon), Route 3 (Shaxrixon-Andijon-Xonobod), and Route 4 (Xonobod-Xo'jaobod-Quva-Arsif-Vodil-Chimyon-Rishton-Buvayda-Qo'qon). Red dots on the map represent marshrut stops.

3-rasm. Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismida olib borilgan dala-ekspeditsiya marshrutlar va tayanch kuzatuv shoxobchalari

13




4-rasm. Farg'ona vodiysining geografik turizm kartasi (O'zbekiston qismi)

"Butazor_va_o'rmonlar" * 0.14 + "Tosh_va_qumli_maydonlar" * 0.05 + "Qishloq_xo'jalig_i_maydonlari" * 0.09 + "Fito_va_zoobiologik_xilma_xillik" * 0.07] koeffitsiyentlari aniqlandi.

Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismining 3/5 qismi subkomfort, 1/5 qismi komfort hamda diskomfort, subdiskomfort va ekstradiskomfort darajadagi hududlar esa mavjud emasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning 2-paragrafi «*Farg'ona vodiysi O'zbekiston qismining turistik-rekreatsion zonalariga tabiiy geografik tavsif*»da tabiiy geografik ko'rsatkichlarini komfortlilikning besh darajasiga qarab tavsiflash, ularning tabiiy geografik xususiyatlarini to'liq ochib berishga xamda tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qila oladi (5^{a,b}-rasm).



Dissertatsiyaning 3-paragrafi «*Mintaqaning turistik-rekreatsion zona va klasterlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar*»da Farg'ona vodiysi O'zbekiston qismida tashkil etilayotgan turistik-rekreatsion zona va klasterlarni rivojlantirish bo'yicha 2019-2022-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda maxsus hududlarning tabiiy geografik imkoniyatlari inobatga olinmagan. Chunki bu masala bo'yicha tegishli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. GAT texnologiyalari va dala-ekspeditsiya ishlari turizmni tabiiy geografik ko'rsatkichlarini komfortlilik darajasiga qarab belgilash kerakligi Farg'ona vodiysi O'zbekiston qismi turistik-rekreatsion zona va klasterlarini tabiiy geografik nuqtayi nazardan rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Buni Shimoliy-g'arbiy turistik-rekreatsion zona misolida ko'rish mumkin:

- ✓ zona va klasterlar hududiga kirish joylarida mahalliy tabiiy sharoitni va ijtimoiy holatini aks ettiruvchi "Kichik o'lakashunoslik axborot markazi"ni tashkil etish;

- ✓ mahalliy aholi va sayyoohlar uchun “Kichik o‘lkashunoslik axborot markazi”da hudud tabiatni komponentlarini hamda komplekslarini aks ettiruvchi ko‘rgazmalar, turizm obyektlar, mehmon uylari, turistik marshrutlar, transport va turizm xizmatlari hamda boshqa turistik maskanlar, internet veb saytlari, uzluksiz aloqa vositalari, turistik qoidalar, salbiy ta’sir natijalari aks etgan operativ moslashuvchan elektron ma’lumotlar olish imkoniyatini beruvchi monitorlarni joylashtirish;
- ✓ hududlarning geomorfologik tuzilishi, geologik tarkibiga mos ravishda, sayyoohlar xavfsizligini ta’minlovchi ekstremal turizm obyektlarini (dor yo‘llari, osma ko‘prik)larni tanlash, qurish va foydalanish;
- ✓ gidrografik tarmoq va mikroiqlim ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holatda mehmon uylarini zamon talablariga mos ravishda barpo etish;
- ✓ mahalliy aholini o‘zining kichik o‘lkasi haqidagi tarixiy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va tabiat komponentlari va komplekslari haqidagi ma’lumotlarni bayon qiluvchi ko‘rgazmalarni tashkil etish;
- ✓ biologik xilma-xillikni ta’minlash maqsadida muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etish va ulardan turistik maqsadlarda foydalanishni tartibga solish;
- ✓ relyef shaklidan kelib chiqqan tarzda bir nechta aloqa operatorlariga tegishli stansiyalarni o‘rnatish;
- ✓ musaffo buloq suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish maqsadida, suv yo‘llarini quvurlar orqali orqali aholini suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;
- ✓ geomorfologik, hidrologik va biologik mahalliy sharoitni inobatga olgan holatda maxsus chiqindi (yig‘ish, saqlash, utilizatsiya qilish va xavfsiz joylashtirish) zona (poligon)larini tashkil etish va tizimli ravishda to‘plash hamda yig‘ishni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ mahalliy tabiiy sharoit va ijtimoiy holatni inobatga olgan tarzda avtomobil yo‘llarida xavfsiz harakatlanishni (yo‘llarni kengaytirish, to‘siqlar o‘rnatish, tosh qulashini oldini oluvchi texnik inshootlarni qurish, qattiq qoplama bilan yo‘llarni qoplash va x.k.) tashkil etish;
- ✓ avtomobil yo‘llariga nisbatan xavfsiz bo‘lgan yangi temir yo‘l (Toshkent-Pop) xizmatidan turizmda keng foydalanish;
- ✓ mahalliy tabiat geotizimlari va turizm infratuzilmasini inobatga olgan tarzda umumiyoq ovqatlanish joylari, bankomatlar, tez tibbiy yordam ko‘rsatish obyektlari va bioxojatxonalar kabi xizmatlarni tashkil etish;
- ✓ tabiat komponentlarini geoekologik vaziyatini barqarorlashtirish uchun haftaning bir kunini “Ekologik tozalik kuni” deb e’lon qilish va uni ommalashtirish;
- ✓ mahalliy tabiiy resurslardan keng foydalangan tarzda jozibador tabiatni aks ettiruvchi turli shakl va ko‘rinishdagi mahalliy hunarmandchilikni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ turistik-rekreatsion resurslar jumladan tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan motivatsion normativ huquqiy asosini yaratish;
- ✓ dorivor tabiiy o‘simpliklarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlashni qat’iy meyorlash;
- ✓ hozirgi davlat siyosatidan kelib chiqqan tarzda, zona hududida organik yoqilg‘i resurslaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish, turizm infratuzilmasi obyektlarini elektr energiyasi bilan ustuvor va uzluksiz ta’minlash uchun, muqobil energiya (quyosh panellari, shamol generatorlari va kichik hidroinshootlar) dan foydalanishni joriy etish;

- ✓ zona va klasterlarga olib boruvchi yo‘l bo‘ylariga hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy turistik obyektlari haqida ma’lumotlar beruvchi yo‘l belgilarini o‘rnatish;
- ✓ turistik-rekreatsion zona va klasterlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy turistik imkoniyatlari aks etgan onlayn va oflayn mobil ilovalarini yaratish;
- ✓ zona va klasterlarda zamon talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

XULOSA

1. Turizmni rivojlantirishga qaratilgan normativ huquqiy hujjatlarda turizmni diversifikatsiyalash va yangi yo‘nalishlarini ilmiy asosini ishlab chiqish va amaliyatga yo‘naltirish vazifasi qo‘yilgan. Shuning uchun ham har qanday turistik mintaqa, zona va klasterlarni tashkil etishda tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini geografik tarqalish qonuniyatlarini inobatga olish lozim. Mazkur vazifani turizmni yangi yo‘nalishi bo‘lgan - geografik turizm bajara oladi. Geografik turizm - muayyan geomajmualar yoki geotizimlarda sayohatchilikni hududiylik, komplekslik, davriylik va tizimlilik nuqtayi nazardan siyosatini belgilash, tashkil etish, olib borish va hisobini yuritish bilan shug‘ullanuvchi turistik industriyasining biri.

2. Geografik turizmning subregional va lokal miqyosdagi tadqiqot obyekti bo‘lib, mintaqa, zona va klasterlar hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismi geografik turistik mintaqa, uning tarkibida o‘ziga xos tabiiy geografik ko‘rsatkichlari o‘xhash bo‘lgan zonalar hamda ularning tarkibida turistik klasterlarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

3. Geografik turizmda *turistik-rekreatsion mintaqa* – muayyan ma’muriy chegaraga ega bo‘lgan, turistik xizmatlarni amalga oshiradigan o‘ziga xos tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni qamrab oluvchi turistik zona va klasterlardan iborat bo‘lgan maxsus hudud. *Turistik-rekreatsion zona* – muayyan chegaralarga ega bo‘lgan, bir yoki bir necha turistik klasterlardan tashkil topgan, sayyoqlikni yil bo‘yi tashkil etish imkoniyati bor bo‘lgan maxsus hudud. *Turistik-rekreatsion klaster* – muayyan chegaralarga, mavsumiy xarakterga va tabiiy-ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga ega bo‘lgan maxsus hudud.

4. Har qanday turistik yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosi metodologik yondashuv bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi – metodlardan farqli ravishda zamon talabiga mos ravishda o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham geografik turizm metodologiyasida zamon talablariga mos ravishda GAT texnologiyalarini qo‘llash metodologiyasini ishlab chiqish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin GAT texnologiyalari yordamida olingan ma’lumotlarni geografik turizmda qo‘llaniladigan an‘anaviy dala tadqiqot va kameral metodlar orqali tekshirib borish kerakdir. Bunda kameral loyihalash, dala–ekspeditsiya, tajriba–sinov yoki tayanch shoxobchalar, kameral xulosalashga tizimlashgan ravishda qat’iy amal qilish tadqiqot natijalari ishonchlilagini keskin oshiradi.

5. Geotizimlarni tasniflash va ularni geografik turizm nuqtayi nazardan rayonlashtirish ilk marotaba amalga oshirilayotgani tufayli unga tajriba sifatida qaraldi. Yer sayyorasini iyerarxik ketma-ketlikda geografik turistik rayonlashtirishda geotizimlarning umumgeografik tasniflanishidan kelib chiqqan tarzda muayyan geografik prinsiplar asosida, jumladan Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismini ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

6. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismining tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini turistik nuqtayi nazardan baholash shu kungacha an’anaviy metodologik bosqichlar orqali amalga oshirilgan. Bunday metodologik yondashuv hududning turistik jihatdan operativ baholash imkoniyatini bermaganligi uchun ham GAT texnologiyalarini qo‘llash maqsadga muvofiq.

7. Subregional va lokal geotizimlarni geografik o‘rnini turistik baholashda GAT texnologiyalaridan foydalanish shart emas. Lekin, relyefning mutlaq balandligi 3 ta, qiyaligi esa 4 ta, iqlim ko‘rsatkichlari 6 ta, gidrografik tarmoqlar zichligi 5 ta, suv havzalarining maydoni 4 ta, biologik ko‘rsatkichlarning har biri 3 ta metodologik bosqichlardan iborat ketma-ketlikda turistik komfortliligi besh darajada (komfort, subkomfort, diskomfort, subdiskomfort, ekstradiskomfort) GAT texnologiyalarining ArcGIS va QGIS dasturlari yordamida baholash metodologik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqdir.

8. Farg‘ona vodiysining O‘zbekiston qismining turistik imkoniyatlari komfortlilikning besh darajada kompleks baholandi va raster formatdan vektor formatga aylantirildi. Olingan natijalar tadqiqot obyektining 3/5 qismi subkomfort, 1/5 qismi komfort hamda diskomfort, subdiskomfort va ekstradiskomfort darajadagi hududlar esa mavjud emasligi aniqlandi.

9. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismining asosiy tabiiy geografik geotizimlarini qamrab olgan dala-ekspeditsiyasi marshrutlari (1100 km) va tayanch kuzatuv shoxobchalari (5 ta) hamda 800 dan ortiq turistik-rekreatsion obyektlar shuni ko‘rsatdiki, hududining geomorfologik tuzilishi vertikal zonallik qonuniyatlariga monand ravishda (2500 m) turizm turlarining komfortlilik darajalari ham ortib boradi. Aksincha, relyefning mutlaq balandligi ortib borgani sari xizmat ko‘rsatish turlarining sifati va xavfsizlik darajasi (Xonobod turistik-rekreatsion zonasidan farqli ravishda) pasayib boradi.

10. Hozirgi kunda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning strategik rejasি turistik-rekreatsion zonalar va klasterlarni barpo etish orqali olib borish masalasi qo‘yilgan. Lekin bu yo‘nalishdagi milliy normativ hujjatlarda ularni tashkil etishda asosiy urg‘u joyning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga qaratilgan. turistik-rekreatsion zonalar va klasterlarni tashkil etishdagi xalqaro tajribalar 7 tadan 12 tagacha bo‘lgan tabiiy geografik ko‘rsatkichlarni GAT texnologiyalari asosida tashkil etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismida GAT texnologiyalari asosida 14 ta tabiiy geografik ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda, 7 ta turistik-rekreatsion zona va 18 ta klasterlarni tashkil etish ilmiy jihatdan asoslab berildi.

11. GAT texnologiyalari orqali Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismida ajratilgan turistik-rekreatsion zona va klasterlarga tabiiy geografik ko‘rsatkichlarni komfortlilikning besh darajasiga qarab tavsiflash, ularning tabiiy geografik xususiyatlarini to‘liq oolib berishga xamda tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qila oladi.

12. Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston qismida tashkil etilayotgan turistik-rekreatsion zona va klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha 2019-2022-yillarda qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarda maxsus hududlarning tabiiy geografik imkoniyatlari inobatga olinmagan. Hamda tegishli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. GAT texnologiyalari va dala-ekspeditsiya ishlari turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tabiiy geografik ko‘rsatkichlarini komfortlilik darajasiga qarab belgilashni maqsadga muvofiq deb biladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2021.GR.02.07
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТОБИРОВ ОДИЛЖОН КОБИЛЖОН УГЛИ

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ
И ЕГО ФИЗИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
(НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)**

11.00.01 – Физическая география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2022.4.PhD/Gr217

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) на веб-сайте Научного совета (www.samdu.uz) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Нигматов Аскар Нигматуллаевич
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Боймирзаев Каримжон Мирзаахмедович
доктор географических наук, доцент

Комилова Наргиза Уриновна
доктор философии по географическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится 26 апреля 2023 года в 15:00 часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/30.12.2021.Gr.02.07 при Самаркандском государственном университете имени Шарафа Рашидова (Адрес: 140104, г.Самарканд, ул. Мукими, 45, Здание юридического факультета Самарканского государственного университета, ком.222. тел.: (+99895) 410-20-10), факс: (+99866) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самарканского государственного университета имени Шарафа Рашидова (зарегистрирована под №____). Адрес: г.Самарканд, проспект Университетский, 15. Тел: (+99866) 233-60-87;

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2023 года
(протокол реестра №____ от «____» _____ 2023 года).

С.Б. Аббасов

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

Б.А. Мелиев

Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии
по географическим наукам (PhD)

А. Абулкосимов

Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В отчетах Всемирной туристской организации (ВТО) определены задачи по выявлению инновационных особенностей и аспектов развития туризма в программах устойчивого развития туризма. С этой точки зрения необходимо правильно оценивать туристские ресурсы и определять новые направления на основе развития географического туризма по всему миру, дальнейшего увеличения потока туристов в туристские объекты, повышения туристского потенциала, совершенствования туристической инфраструктуры с учетом туристского потенциала.

Во всем мире особое внимание уделяется современным исследованиям, создающим основу для эффективного развития туристического рынка с целью увеличения индустрии туризма, обоснования ее географического положения в экономике, дальнейшего увеличения ее географической значимости и доли. Кроме того, приоритетное значение придается выявлению территорий с высоким географическим туристическим потенциалом и туристических направлений, специфических региональных различий в развитии туризма, оценке их внутренних возможностей, увеличению видов услуг, оказываемых туристам, их региональной организаций.

В нашей республике реализуются комплексные меры в туристической и рекреационной сферах, в частности, широкомасштабные меры по использованию современных методов с учетом ее физико-географических особенностей. В рамках 35-й цели «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60, определены следующие важные задачи: «Увеличение числа местных туристов до свыше 12 миллионов и доведение числа зарубежных туристов, пребывающих в республику, до 9 миллионов в рамках реализации программы «Путешествуйте по Узбекистану». В связи с этим определение приоритетных целей и задач по опережающему развитию сферы туризма в нашей республике, дальнейшее повышение его роли и доли в экономике, совершенствование туристической инфраструктуры имеет важное значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Постановлениях и Указах Президента Республики Узбекистан от 3 февраля 2018 года № УП-5326 «О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан», от 5 января 2019 года № УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан» и «Концепции развития сферы туризма в Республике Узбекистан в 2019–2025 годах», утвержденной настоящим указом, от 7 февраля 2018 года № ПП-3514 «О мерах по обеспечению ускренного развития внутреннего туризма», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 февраля 2021 года № 100

«О дополнительных мерах по развитию внутреннего и паломнического туризма», от 8 июня 2022 года № 318 «О развитии туристского потенциала Попского, Янгиургонского и Чортокского районов Наманганской области в 2022-2024 годах «О дополнительных мерах по развитию туристического потенциала Попского, Янгиургонского и Чартакского районов Наманганской области в 2022–2024 годах» и других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности.

